

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDAGI LINGVOPOETIK VOSITALAR HAQIDA

Urak Pazilovich LAFASOV

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

О ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИХ СРЕДСТВАХ РОМАНА «СКОРПИОН ИЗ АЛТАРЯ»

Урак Пазилевич ЛАФАСОВ

Кандидат филологических наук, доцент
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан

LINGUOPOIETIC MEANS IN THE NOVEL “SCORPION FROM THE ALTAR”

Urak LAFASOV

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Tashkent State Institute of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan lafas1963@gmail.com

UDC (UO‘K, УДК): 808.1: 821.512.133

For citation (Иқтибос келтириш учун, для цитирования):

Lafasov U. P. “Mehrobdan chayon” romanidagi lingvopoetik vositalar haqida // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (50). — B. 16-31.

<https://doi.org/10.36078/1687162354>

Received: April 22, 2023

Accepted: June 17, 2023

Published: June 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. XX asrgacha bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarda til va adabiyot sohalari ayri holda o‘rganilganligi, bu holat matn badiiyatiga jiddiy zarar yetkazib kelganligi, ilmda ushbu qusurga barham berish uchun lingvopoetika sohasi shakllanganligi va lingvopoetika badiiy matndagi uslubiy bo‘yoqli til birliklarining estetik ta‘sir yaratish masalasini o‘rganishi aytilgan. O‘zbek milliy adabiyotidagi o‘zbekona ohoriy matnlar ijodkori Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari dunyodagi oltinchi milliy romanchilik maktabiga asos bo‘lganligi sharhlangan. Abdulla Qodiriy boshlab bergan yangi yo‘nalish bois keyinchalik O‘rta Osiyoda qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq va qirg‘iz romanchiliklari shakllanganligi bayon qilingan. Maqolada asos sifatida buyuk o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida qo‘llangan tovush ikkilanishi, tovush almashishi, morfologik shakllar, lug‘aviy birliklar (sinonim, antonim, sof o‘zbekcha so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, frazeologizmlar), badiiy san‘atlar (kinoya, o‘xshatish, mubolag‘a, saj), matallar, maqollar, portret, replika-takror kabi lingvopoetik vositalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: adabiy meroslar; roman janri; lingvopoetika; badiiy matn; uslubiy bo‘yoq; til birliklari; estetik ta‘sir; milliy-ma‘naviy boylik; ohoriy matnlar; Abdulla Qodiriy.

Аннотация. До XX века в исследованиях сферы языка и литературы изучались раздельно, что нанесло серьезный ущерб искусству составления текстов. В науке в целях устранения этого недостатка сформировалась область лингвопоэтики, которая изучает вопрос создания эстетического эффекта стилистически окрашенных языковых единиц в художественном тексте. Абдулла Кадыри — создатель исторических романов в узбекской национальной

литературе, его исторические романы явились основой шестой национальной школы романистики в мире. Благодаря новому направлению, начатому им, впоследствии в Средней Азии сформировались жанры казахского, туркменского, таджикского, каракалпакского и киргизского романов. В статье подчеркивается, что для достижения высокого статуса произведения автор-создатель должен чувствовать дух своей нации, знать её устное народное творчество, обладать достаточным словарным богатством родного языка, а также высоким уровнем понимания и применения средств художественного изображения, и только в этом случае он сможет в совершенстве раскрыть масштабы выражения и достичь непревзойденного уровня изображения национального языка. В основу анализа в статье положено исследование двойственных звуков, замена звуков, морфологические формы, словарные единицы (синонимы, антонимы, чисто узбекские слова и выражения, диалектные слова, фразеологизмы), художественные тропы (ирония, сравнение, преувеличение), пословицы, создание портрета героев, реплики-повторы, использованные в романе великого узбекского писателя Абдуллы Кадыри «Скорпион из алтаря».

Ключевые слова: литературное наследие; жанр романа; лингвопоэтика; художественный текст; стилистическая окраска; языковые единицы; эстетическое воздействие; национальное духовное богатство; Абдулла Кадыри.

Abstract. Until XX century, the fields of language and literature were studied separately in world scientific research. The field of linguopoetics, which studies the issue of creating an aesthetic effect of stylistically colored language units in the artistic text, was formed to eliminate this gap. The study provides information about Abdulla Kadiri, the creator of Uzbek historical novels in the Uzbek national literature; his historical novels that formed the basis of the sixth national schools of novel writing in the world. It states that Kazakh, Turkmen, Tajik, Karakalpak and Kyrgyz novels were formed in Central Asia because of the new trend started by Abdulla Kadiri. It was emphasized that the national language can reveal the scope of expression and the level of incomparable image. The sound doubling, sound exchange, morphological forms, lexical units (synonyms, antonyms, pure Uzbek words, dialectal words, phraseological units) used in the novel "Mehrobdan Chayan" by the great Uzbek writer Abdulla Kadiri, stylistic tropes (irony, simile, exaggeration, exaggeration), proverbs, heroes' portraits, replica-repetition, and linguopoetic means were analyzed.

Keywords: literary heritage; novel genre; linguopoetics; artistic text; stylistic paint; language units; aesthetic effect; national spiritual wealth; Ahori texts; Abdulla Kadiri.

Yer yuzida millatlar soni ko'p bo'lib, ular turli mintaqalarda istiqomat qiladilar va o'ziga xos qadimiy boy badiiy adabiyot namunalariga egadir. Roman adabiyotdagi kenja janrlardan biri sanaladi. Jahon adabiyotida badiiy jihatdan yuksak darajada yozilgan romanlar behisob, biroq ushbu asarlar ko'p jihatdan milliy roman uchun qo'yilgan mezonlarga to'liq javob bera olmaydi. Shuning uchun dunyoda milliy ruhiyat aniq va asosli yoritib berilgan oltita (*ingliz, fransuz, nemis, hind, rus va o'zbek*) milliy romanchilik maktabi bor.

XX asrgacha bo'lgan ilmiy tadqiqotlarda til va adabiyot sohalarini ayri holda, bir-biridan ajratib o'rganilgan. Bu holat esa har qanday matnning tili hamda badiiyatidagi o'zaro mutanosiblikka zarar yetkazib kelgan. Vaqt o'tib ilmiy sohadagi ushbu ulkan qusurga barham berish

maqsadida filologiyaning yangi sohasi lingvopoetika yuzaga keldi. **Lingvopoetika** — filologiyaning bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda **badiiy matndagi uslubiy bo‘yoqli til birliklarining** muayyan g‘oyaviy-badiiy **mazmun** ifodalashi va **estetik ta’sir yaratish** masalasi tahlil qilinadi (10). Mazkur sohaning asosiy maqsadi matndagi uslubiy bo‘yoqli lug‘aviy birliklarning badiiy ifodasi va estetik ta’sirini izohli tavsiflashdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda milliy-ma’naviy boylik sanalgan badiiy matnlar tahlil qilinadi.

O‘zbek milliy adabiyotidagi o‘zbekona ohoriy matnlar Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlaridan (21) o‘rin olgan. Adib ushbu romanlari bilan dunyodagi **oltinchi o‘zbek milliy romanchiligiga** asos solgan (5, 15). Abdulla Qodiriy boshlab bergan yangi romanchilik yo‘nalishi bois keyinchalik O‘rta Osiyoda qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq va qirg‘iz romanchiliklari shakllandi, ammo ushbu maktablarda yaratilgan asarlar ohoriy milliy roman maqomiga hali erishgani yo‘q.

Lingvopoetika — badiiy asarda qo‘llangan **til vositalari yig‘indisi** bo‘lib, yozuvchi ushbu unsurlar yordamida o‘z asarining **bayon usuli, tasvir vositalari, badiiy-g‘oyaviy mohiyati** hamda **estetik ta’sir kuchini** oshirib boradi (5). Har qanday badiiy matn kitobxonga nafosat zavqini baxsh etsagina qadrlanadi. Buning uchun yozuvchi o‘z millatining ruhiyati, xalq og‘zaki ijodi, ona tilining so‘z boyligi va badiiy tasvir vositalarini yuksak darajada bilishi va qo‘llay olishi kerak. Shundagina milliy tilning ifoda ko‘lami va beqiyos tasvir ifodalari mukammal tarzda yuzaga chiqadi. Ana shu vositalar esa lingvopoetik unsurlar sifatida tavsiflanadi. Ushbu maqolada buyuk o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning “*Mehrobdan chayon*” (14, 140), romanidagi **lingvopoetik vositalar** (7, 7)ni tahlil qilish asosida yozuvchining buyuk zot ekanligini e’tirof etgan holda **o‘zbek badiiy san’ati** dahosi ekanligini asoslash masalasini o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz. Buning uchun fikrimizni yozuvchining ikkinchi romanidagi dalillar bilan isbotlashga harakat qilamiz.



1. Har qanday milliy tilning beqiyos jozibasi nutq tovushlari talaffuzi orqali yuzaga chiqadi. Adib milliy talaffuzning o‘zgacha nozikliklarini kitobxonga aniq ko‘rsatib berish uchun fonetik usuldan foydalangan. **Tovushni cho‘zish, almashtirish** (21) va **tushirish** o‘zbek milliy tilidagi o‘ziga xos muhim hodisalardan sanaladi va ular vositasida quyidagi ma’nolar yuzaga chiqarilgan:

1) **azoblanish**. M.: — *Yo‘l bo‘lsin?* — *Ketyappan.* — *Xayr, kechiringiz* (5);

2) **joziba**. M.: — *Yanglishasan, Ra'no, — dedi Anvar, — men bu gulning qizarish sirrini ham bilaman, buning qizarishig'a ham sen sabab, sening qip-qizil labing...*(5, 432);

3) **iztirob**. M.: *Anvarning vujudi g'izz etib ketdi: qarshisida boyag'icha o'ltirgan Ra'noga "tur, jo'na" degan kabi ishorat qildi...* (8, 574);

4) **mulohaza**. M.: — *Himmm, — dedi maxdum, — qishlog'ingizda oqsoqol yo'qmi?* (5, 509);

5) **haqorat**. M.: *Turpoqqa ag'nadingmi, eshshak!* (8, 514);

6) **ta'kid**. M.: *To'rttavi, biri orqasidan biri chizilishib, shahsufa yonig'a bordilar.* (5, 525);

7) **anglash**. M.: — *Xonimg'a (ayol kishiga) arzim bor! Yana gurr etkan kulgi bog'ni tutib ketdi* (5, 522);

8) **qasam**. M.: — *Bilib turg'an bo'lsangiz, — dedi Sultonali o'pkalik qiyofada, — nega mendan shubhalanasiz? Yo'q, yo'q, uka, men xudoy haqqi...* (5, 550);

9) **ma'qullash**. M.: *Sen bilan men bo'lsa qattig' nonni ham yeya beramiz: jazzasi (jazosi) choyg'a bo'ktirish-da* (5, 457);

10) **hayronlik**. M.: — *Dadam yima (nima) qilardi? — deb so'radi turg'an joyidan* (5, 403);

11) **yaqinlik**. M.: — *Ra'napa, Ra'napa! — deb Mansur yig'i aralash o'zidan chopib o'tmakchi bo'lg'an Mahmudning ustidan Ra'no opasig'a arz qildi* (5, 402);

12) **jig'iga tegish**. M.: — *Bildim, bildim: mullataning xotini, mullataning xotini! — dedi Mahmud va ichkariga qarab qochti* (5, 403);

13) **aniqlik**. M.: — *Tashqarida kim bor? — ...Ichkim {hech kim}. (5, 577).*

2. Har qanday milliy tildagi nozik ifodalar **morfologik shakllar** (18) orqali yuzaga chiqadi. Buning uchun yozuvchi milliy shakllarning betakror ifodalarini kitobxonga ravshan ko'rsatib berish uchun morfologik usuldan foydalangan. Ular vositasida quyidagi ma'nolar aks ettirilgan:

1) **davomiylik**. M.: *Ra'no ham yo'llakka qarab qizarinib ketdi va oldig'a tushib tartibsizlangan sochini orqasig'a tashlab tuzatindi* (9, 403);

2) **mamnunlik**. M.: *Anvar Ra'noni bag'rig'a olib quchoqladi. Shu holda Mohlar oyim kulimsidi* (18, 419);

3) **taqlid**. M.: *Ra'no kelinlaracha Anvarga salom qildi va jazb qilg'andek Anvarning yaqinig'a borib to'xtadi* (18, 419);

4) **holat**. M.: *Havo tekis qoramtil bulut bilan o'ralg'an, Qo'qonning mashhur shamoli qanot yoyg'an edi* (18, 570);

5) **g'azab**. M.: — *Shu bevafo dunyoga bir ish qilamiz, Qobelboy, — dedi yana ko'zi olalang'an Rahim. — Dayusingni zindoni qaerga?* (18, 613);

6) **mamnunlik**. M.: *Sharif va Qobil uning jiddiyatidan kulimsishdilar* (18, 614);

7) **tortinish**. M.: — *Toza yaxtak kiymagan edim, buningiz menga uval-da, uka, deb siqilinqiradi* (18, 604).

8) **o'ktamlik**. M.: — *Gunohsizni menim ko'z o'ngimda banddan ozod qilinmas ekan, Anvarni bu yerdan chiqara olmaslar, qiblai olam, —*

dedi va o'zini tashqarig'a torta boshlag'an jallodlarni arslonlarcha siltab yubordi, — sizda adolat bormi, janob?! (18, 623).

9) **nafrat**. M.: *Ko'zi qonlang'an Anvar ikki qo'lini yonig'a tashlab Xudoyor qarshisida turib qoldi (18, 623).*

10) **ta'kid**. M.: — *Siz beklashkaningizdan beri ... sizni ko'rsam uyaladig'an bo'lib qolibman (18, 469).*

3. Har qanday milliy tildagi ta'sirli ifodalar **lug'aviy birliklar** orqali yuzaga chiqadi. Buning uchun ijodkor so'zlardagi serqirra ma'nolarni kitobxonga aniq ko'rsatib berish uchun leksik usulni ishlatgan. **Sinonimlar** (17) ma'no qirralari bir-biriga yaqin har xil so'zlardir. So'z ustasi o'zbek tilining so'z xazinasidan ohorli ma'nodosh so'zlarni topib, o'z asarida qo'llagan:

1) **tabaqa nomi**. M.: *Uyg'urlar bizdagi "xonim, bekach" deyish o'rnida "og'acha" deydirlar (17, 487);*

2) **tabrik so'zi**. M.: ... *o'z umrida birinchi martaba Anvarning hurmatiga o'rnidan turdi. — Muborak, muborak! Borakallo, mirzo Anvar! — dedi (17, 452). — Qutlug', taqsir, qani, marhamat qilsinlar (10, 460);*

3) **jins oti**. M.: *Tanisalarigaz kerak, o'rgulay, men mirzo Sultonaning ko'chlari bo'laman. (17, 577–578). Xotindan bu so'zni eshitib Nigor oyim achinish va uyalish vaziyatiga kirdi (17, 578);*

4) **chiroy oti**. M.: *Shu husning, shu malohating va shu latofating bilan tamom meniki bo'larsan, shundaymi? (17, 477);*

5) **mansab nomi**. M.: — *Bosh munshiylik lavozimoti borasidagi fikringiz darhaqiqat to'g'ri, — dedi, — ammo mirzo Anvarning uhda qila olishi muhaqqaqdir (17, 399). — Men bu jigiti mirzaboshi qilmaqchi bo'ldim, — dedi xon va tizasi tegidan bir qog'oz olib, domla Niyozg'a uzatti, — uqung', domla (17, 450). Sarmunshiy — demak, agarchi soqoli ko'ksini tutqan Shahodat mufti kabilarning bo'lsa ham xo'jasidir (17, 452). Ul bo'lsa madrasa ko'rmasdan mirzalarning mirzasi bo'lmoqchi; xudoy bersa shunday, taqsir (17, 439). — Xon janobning munshiylar munshiysi bo'lg'an bir yigitning salobati borlig'ini kim inkor etsin (17, 469);*

Antonimlar (19) zid ma'noli so'zlar bo'lgani bois, ulardan unumli foydalangan so'z zargari o'z asarida ohoriy tasvirlarni yaratishga harakat qilgan:

1) **asl haqiqat**. M.: *Anvar o'zini tabrik qilg'uchi ulamo va ashroflar yuzidan ochiq ravishda riyo, shaytanat va tama' o'qur, kambag'allardan sodda samimiyat ko'rar edi (19, 458);*

2) **xulosa**. M.: ... *"visol — muhabbatni o'ldirguchi, hajr esa — kamolatka erishdirguchidir" (19, 573);*

3) **ibtido**. M.: ... *faqat siz iflosliq natijasida kulasiz, men... men to'g'riliq samarasini o'raman, siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman... (19, 625);*

4) **izoh**. M.: *Va'da berish oson, lekin uhdasi mashaqqat; bundan so'ng shuni ham xotirda yaxshi tutingiz (19, 582);*

5) **ishonch**. M.: *Do'stlar shod, dushmanlar g'amgin, yavmi saodat (saodatli kunlar) yaqindir (19, 604);*

6) **mushohada**. M.: — *Balki Sultonaning qamalishi yolg'ondir, agar chin bo'lsa, inim bilan albatta kengashish kerak (19, 614).*

Asl o‘zbekcha so‘zlar xalq og‘zaki ijodi namunalarida, og‘zaki nutqda ko‘p qo‘llanadi. Abdulla Qodiriy o‘zbek tiliga manba bo‘lgan xazinadan ana shunday so‘zlarni topib badiiy uslubga olib kirgan:

1) **shopiring‘an**. M.: *Anvar Sultonali mirzoga boyag‘i va‘dani berib, bu xabar bilan yuragi shopiring‘an (toshgan) holda uyga keldi* (19, 468);

2) **kulavich**. M.: *Ra‘no bir oz eski kulavich (kesatiq) va munaqqidlik holatiga kirdi* (19, 469);

3) **so‘z ulashdirish**. M.: — *Cho‘ringiz so‘z ulashdirish (gap yetkazish)ni yomon ko‘radir, oyi xonim* (19, 489);

4) **kunchilaydi**. M.: *Sayidni kunchilaydi (qizg‘anadi), deb boshingizg‘a keltira ko‘rmangki, hozir ham men onhazratning bir yuzinchi xotini bo‘laman.* (19, 490);

5) **big‘lag‘an**. M.: *Oyu yillar yiglag‘an, bag‘rin har dam tig‘lag‘an. Hasratidan big‘lag‘an (hushsiz yiqilgan), baxtsiz bir qiz Nazmidir!* (19, 500).

Shevaga xos so‘zlar (12) muayyan hududda yashovchilar uchun tushunarli bo‘lgan lug‘aviy birliklardir. Adib o‘zbek tilining ko‘p lahjaliligini hisobga olgan holda o‘z romanida tilning qadim madaniyatga daxldorligini, matnning ta‘sir kuchi va haqqoniyligini oshirish maqsadida shevaga oid so‘zlardan unumli foydalangan:

1) **havli**. M.: *Maxdumning havli (hovli)si uch qabat edi* (12, 397);

2) **kissa**. M.: *Shunda ham hafta sayin Muhammad Rajabbek o‘z kissa (cho‘ntak)sidan uch-to‘rt tanga choy puli berib turar edi* (12, 426);

3) **milla**. M.: *Ovoza gap deyapmiza, mirzaboshiliqqa katta milla (mulla) kerak deyapmiz-a.* (12, 436);

4) **arza**. M.: *Arza (ariza) o‘runlasa yana xizmat qilarmiz, mirzaboshi* (12, 437);

5) **falakat**. M.: *Yana yo‘q, “toza falakat (falokat) bosti” deb tursam, “arzaga haq olmayman, bo‘zingni olib ketavur” — degani ekan* (12, 437);

6) **jigit**. M.: — *Men bu jigit (yigit)ni mirzabashi qilmaqchi bo‘ldim, — dedi xon va tizasi tegidan bir qog‘oz olib, domla Niyozg‘a uzatti, — o‘qung‘, domla* (12, 450);

7) **arig‘, ketman**. M.: *Arig‘ (ariq) qazuvchilarning ovqatdan sillalari qurib, iliklari puchaygan, yerdan o‘n qadoq tuproq olib irg‘itishqa emas, hatto ketman (ketmon)ning o‘zini ko‘tarishka ham darmonsiz edilar* (12, 480);

8) **budana**. M.: *Budana (bedana) bersangiz sho‘xliq qilmayman* (12, 488);

9) **Qurg‘an**. M.: *Katta domlam Qurg‘an (Qur‘on)dag‘i ijjani o‘qug‘an edi, men...* (12, 545);

10) **lachak**. M.: *Xotin qistatmay sandalga chiqib o‘lturdi, ko‘zi Ra‘noda ekan, fotiha o‘qub ro‘ymol-lachag (qalpoqli sochbog‘)ini tuzatdi* (12, 577);

11) **jo‘nashdirib**. M.: *Toyir aka olov jo‘nashdirib (qo‘zg‘ab), bir oz javobsiz o‘lturdi* (12, 535);

12) **qisim**. M.: *Anvar ro‘ymolni qisim (siqim)ig‘a oldi* (12, 475);

13) **ahmaq**. M.: *Xay, ahmaq (ahmoq)san, — dedi maxdum entikib, — Anvar yorlig‘ olg‘an, so‘yinchiga yigit keldi; sandiqni ochib, shunga bir narsa berib yuborayliq, deyman, tez bo‘l!* (12, 455);

14) **mundan**. M.: — *Sen mundan (bundan) keyin kichkina bo'lmaysan qizim, Ra'no, — dedi maxdum nasihatomuz, — shu ukalaring bilan qilib o'lturgan ishingni kishi ko'rsa nima deydi* (12, 382);

15) **ashun**. M.: — *Ashun (ana shunga)ga qog'anda chalg'ibsan, Samad, — dedi Safar bo'zchi, — xat bitishka kelganda qo'yavur, kambag'alga qayishqanini ko'rsang, ha, bo'ldi deysan* (12, 436);

16) **so'g'un**. M.: — *Qorunni to'yg'uzib, so'g'un (so'ng) uxla akun, qorunlar ham piyoz bo'lib to'xtabtu, nonushtani qaerga qilamiz, Sharif?* (12, 610);

17) **akun**. M.: — *Qorunni to'yg'uzib, so'g'un uxla akun (endi), qorunlar ham piyoz bo'lib to'xtabtu, nonushtani qaerga qilamiz, Sharif?* (12, 610);

18) **chaqirding'ma**. M.: — *E-ey, Zokir aka, sen chaqirding'ma (chaqirdingmi)... Ha, nima gap?* (12, 524);

19) **tavba qippan**. M.: — *Tavba qippan, tavba qippan (tavba qilibman), — dedi Safar. — Men o'z qadrimni bilmay yurg'an ekanman-da* (12, 549);

20) **qafa bo'lati**. M.: — *O'qni bering', aka, taqsir qafa bo'lati (xafa bo'ladi)! (560-bet);*

21) **minan**. M.: — *Cho'zma kekirtagingni, bo'qoq, — dedi, qani qo'yib ber-chi taqsiringni, yoqalashsin-chi men minan (bilan)! (12, 439).*

Frazeologizm (15) (*ibora*) ma'nosi bir so'zga teng keladigan ko'chma ma'noli so'zlar birikmasi va gapga o'xshash birliklardir. Yozuvchi o'z asarida o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini ko'rsatish uchun ushbu vositadan samarali foydalangan.

1) **behad g'azablanish**. M.: ...*Bahodirxon qulog'ig'a bu xabari jonso'z yetib dumog'idan dud chiqadir...*(15, 384);

2) **xotirjam**. M.: *Na'ima to'g'risidan tashvish yo'q, husn, odob, yumish, hammasidan ko'ngil to'q, bek bo'lmasa — bezoda, mudarris bo'lmasa — mukarrir//assistent* (15, 387);

3) **bekorga**. M.: *Qarshi quda bo'lmoq uchun qizliq va o'g'ullik havlini uchratish va buning ustiga "naslu nasabda tekislik", olinadig'an kelinning silliqina bo'lishi — ana shunday mushkilotlar orqasida ikki yil chamasi Na'imaning umri sarg'ayib o'tdi* (15, 387);

4) **tuhmat qilib**. M.: *Mundan boshqa, bir-birlari ustidan xong'a shikoyat qilish, o'zaro bitmas adovat ham davom etib, aksar bir-birlarining tegiga suv ham quyib turar edilar* (15, 431);

5) **butunlay**. M.: *Mirzolar orasida Anvarga tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lg'an Shahodat mufti kabi keksa mirzolar yashag'anlaridek uning iste'dod va zakosiga xolis maftun bo'lg'an Sultonali kabi mirzolar ham bor edilar* (15, 431);

6) **ilojsiz**. M.: *Bu javobdan keyin Abdurahmonning dami ichiga tushib, o'z taqdiriga la'nat o'qidi* (15, 446);

7) **xafa**. M.: *Sultonali mirzog'a o'xshag'anlar yer ostidan yonidag'isig'a kulib muomala qilar va ba'zilari Shahodat mufti kabi to'nini beskari kiyib olg'an ko'rinar edi* (15, 448);

8) **bo'shshagan**. M.: *Tarbuzi qo'ltug'idan tushkan tunqotar yasovullarning oldig'a tushib, tars-turs ko'chaga chiqdi...* (15, 595);

9) **xursand**. M.: *Bu iltifot ikki do'stning aloqalarini bir-birlariga yana qattig'roq bog'ladi, ayniqsa, maxdumning dimog'ini chog' qildi* (15, 422);

10) **xafa**. M.: *Biroq, oy sayin ikki tilloni olg'anda "qolg'ani" to'g'risida bir oz yuragi achishib qo'yar edi* (15, 429);

4. Har qanday adabiy tildagi milliy va ta'sirchan ifodalar **badiiy san'atlar** orqali yuzaga chiqadi. Yozuvchi o'z romanida turli badiiy san'at namunalari orqali o'zbek tiliga xos boy muloqot shakllarini kitobxonga aniq ko'rsatib bergan.

Kinoya (yunoncha "ironiya", arabcha "ta'riz") — so'z, iboralarni, kesatiq hamda piching bilan o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatish (6). Ushbu badiiy san'atdagi so'z teskari ma'noda qo'llangani uchun qo'shtirnoqqa olib yoziladi. So'z san'atkori hajv, tanqid va yumorni yaxshi ko'rgan yozuvchi bo'lgani bois ushbu badiiy vositadan unumli foydalangan:

1) **bosh og'riq**. M.: *Shunga o'xshash maxdumning onasi Mohlar oyimning kasali go'yo "dard ustiga chipqon" edi: maxdumning yoshi yigirmadan oshti, Na'ima ham o'n sakkizga to'ldi, ya'ni kelin ham kerak, kuyav ham* (6, 387);

2) **nuqsonsiz**. M.: *Qarshi quda bo'lmoq uchun qizliq va o'g'ullik havlini uchratish va buning ustiga "naslu nasabda tekislik", olinadig'an kelinning silliqligina bo'lishi — ana shunday mushkilotlar orqasida ikki yil chamasi Na'imaning umri sarg'ayib o'tdi* (6, 387);

3) **moslik**. M.: *Chunki "o'xshatmay uchratmas" degandek narigi taraf ham Mohlar oyimning bittasi edi* (6, 397);

4) **yechilmaydigan**. M.: *Mahalla kishilari maxdumning bu choponig'a "moltopar" deb ism berganlar* (6, 389);

5) **bazmbop**. M.: *Mahalla kishilari banoras to'nni "zarurat" deb atag'an bo'lsalar ham, adras guppiga hali nom qo'yg'uncha yo'qlar...* (6, 389);

7) **ziqnalik**. M.: *bir oy to'lmasdan kir yuvishg'a ruxsat bermas, agar Nigor oyimning bir oysiz kir yuvg'anini ko'rib qolsa — "kiyimni tog'orada churutasan!" deb g'ovg'a solar edi* (6, 390);

8) **bahona**. M.: *Har hafta bir-ikki martaba qovoq somsa yopdirmay qolmas, ammo — "yog'ni kam sol, qovoqning ta'mini buzadir!" deb ta'kidlashni ham unutmas edi* (6, 390).

9) **bee'tibor, qadrsiz**. M.: *Anvarning "chillasi charog' ko'rmagan" bo'lsa hech boki yo'qdir, biroq yigirma kunlab beshikda ismsiz yotishi qiziqdir, chunki yangi "qadrlik mehmon"ga ot qo'yish na otasining esiga va na onasining xotirig'a kelgan edi* (6, 416);

10) **aslzoda-kambag'al**. M.: *Nasim "xonning mirzaboshisining o'g'liman", deb havolanmag'anidek, Anvar ham "Salim bo'yoqchining yatimi, Solih maxdumning asrandisiman" deb andisha qilmas edi* (6, 422);

11) **milliy g'urursiz**. M.: *Xudoyor muhr bosish asnosi yozilg'an yorlig' va nomalarni o'qutib eshitar, munshiylarning eshitilmagan arab va fors so'zlari orqaliq to'qug'an yarim turkiy jumllariga aksar vaqt tushunmas: "Enalaring arapqa tekkanmi?" deb mirzo, muftilarni koyir edi* (6, 429-430);

12) *xon, laqma emas*. M.: *Chunki “soyaboni marhamat” vijdon kengashiga quloq sog‘uchi “ahmoq”lardan emasdir* (6, 433);

15) *badbashara*. M.: *Uning yonida bo‘z yaxtak bog‘ichini osiltirib, xandalandek bo‘qog‘i bilan o‘ng tomog‘ini ziynatlagan o‘rta yashar yana bir “husni Yusuf” ko‘rinar edi* (6, 435);

14) *pultopar*. M.: *Chunki “zarshunos” Anvarning shu dehqong‘a o‘xshash kambag‘allar ishini bitirib berib, ulardan “chaqa” olmaslig‘ini bilar edi* (6, 509);

15) *poraxo‘r*. M.: *Shu yo‘sun maxdum bir necha haftadan beri bu “hunar”ni o‘ziga kasb qilib olg‘an, Anvar ariza va kengashdan bir pul ishlamagan kunlarda, ul necha tangalarni yo‘lakda o‘lturib topar edi* (6, 509);

16) *pora*. M.: ... *ichkarida bu kungi “daromad”ni sanab, bir pulni besh puldan, tangani chaqadan ajratib, “he, gap bilguncha ish bil, bachcha taloq”, deb o‘zicha kular edi* (6, 509).

O‘xshatish badiiy san‘ati o‘zbek tilida juda ko‘p qo‘llanadi. Abdulla Qodiriy go‘zallik, tanqid kabi holatlarni ifodalash uchun ushbu badiiy vositadan samarali foydalangan:

1) *zaxdagi otiyo‘q*. M.: *Menimcha, “Mehrobdan chayon” romanidagi har bir qahramon qismati bir to‘kis fojidadir* (16, 637);

2) *mulla Abdurahmon*. M.: *Bu kaltakesak yutkan chayonning yuragida, xudoy bilsin, sizga qarshi katta adovat bor* (16, 538);

3) *o‘ta go‘zal*. M.: *Shu holda ichkaridan go‘yo yuzi sut bilan sug‘orilg‘andek oq, quralay ko‘zi oysiz va bulutliq kechadan ham qoraroq, qaddi sarv kabi mavzun, qora sochi taqimini o‘pkan, ust-boshi ipak va oltinlar bilan g‘arq bir* (Roziya) *xonim xiromon chiqib keldi* (16, 493);

4) *yarashmagan*. M.: *Jilovxonaning to‘rida o‘lturgan qora to‘nlik, o‘ttuz yoshlar chamasida rangsiz va yoshlig‘iga qaramasdan quyuq soqolini bahaybat o‘sturib, bir burdagina yuziga ot to‘rba osqan kabi bir kishi edi* (16, 435);

5) *xunuk*. M.: *Uning qatorida oshlovdek cho‘zuq yuzlik, oq bo‘z ko‘ylagi yerdan to‘rt ellik ko‘tarilib, bo‘z sallasi gardani aralash o‘ralg‘an uchunchi nozanin o‘lturar edi* (16, 435);

6) *sukut*. M.: *Qarshisidag‘i ikkisi go‘yo mum tishlag‘an kabi so‘zsiz edilar* (16, 448);

7) *noroz*. M.: *Bu holdan yana imomning fe‘li aynab, yo‘l ustida birdan to‘xtadi va Safarning aftiga bir turli mushuk qarashi qildi* (16, 461);

8) *xayrixohlik*. M.: *Boyag‘idan bir muncha kuchayatushkan shamol gulni gulga quvishtirib, go‘yo bu ikki yoshg‘a: “Siz ham man shu gullar kabi qovishing” degandek bo‘lar edi* (16, 473-474);

9) *xushbichim*. M.: *O‘zi qanday yigit deb so‘ra: surma qo‘yg‘andek ohu ko‘zi bor, qizil olmadek tarang yuzi bor, endi chiqib kelgan ko‘k maysa mo‘ylabi, Roziya xonimnikidan ham nafisroq qalam qoshi...* (16, 504);

10) *haddan ziyod ko‘p*. M.: ...*to‘yg‘a ishtirok etadigan kazolar, xonim oyimlar, hammadan ham muhim va qizig‘i yomg‘ur kabi yog‘iladig‘an to‘yona va ularning saranjomi...* (16, 519);

11) **bedavo**. M.: *Uning gavdasi bu qadar “kelishkan” bo‘lishi ustiga, basharasi ham shunga monand tushkan, tomog‘ining ostida cho‘guri qovundek bo‘qoq g‘ovlab yotar edi* (16, 524);

12) **bo‘rttirish**. M.: — *Sizga bir so‘zni aytib ham bo‘lmaydi, — deb kuldi Sultonali, — ignani tuyadek, xasni xaridek ko‘rasiz* (16, 566);

13) **tovlanish**. M.: *To‘qquz-o‘n kunlik oy shaharning qoq ustida cheti qorayg‘an sariq barkashdek yaltirab turar edi* (16, 584);

14) **o‘ta darajada**. M.: *Darichalari yopiq mashqxonaning ichi hosid (baxil)lar yuragidek qop-qorong‘i, daromad ham yopilg‘andan so‘ng uy go‘yo lahad tusiga kirdi* (16, 585);

16) **zimiston**. M.: *Darichalar tirqishidan tushkan yorug‘liq bilan zulumot bir oz kuchsizlandi, shunda ham uning ko‘z o‘nggi qov (kuydirilgan paxta) kabi qorong‘i edi* (16, 585);

16) **kuchsiz**. M.: *G‘urubi (botishi) yaqinlashqan qip-qizil oy Anvar to‘xtag‘an muyushka ko‘laga kabi zaif nur sochar edi* (16, 588);

17) **asabga tegadigan**. M.: *Ayvondagi kampirning chig‘irig‘idan g‘ijillab chiqqan tovush mushuk bola mavlagan kabi hujraga eshilib turar edi* (16, 609).

Mubolag‘a (13) o‘zbek tilida juda ko‘p qo‘llanadigan badiiy vositalardan biri bo‘lib, ijodkor nozik ifodalarni berish uchun ushbu badiiy vositadan foydalangan:

1) **ko‘mak**. M.: *Shamol, go‘yo ko‘maklashkan kabi orqadan esib, Ra‘noni Anvar tomong‘a mayl etdirar edi* (13, 477);

2) **qarash**. M.: *Terak orqasida qolg‘an oy ham kuchlik yelning ko‘magida terak boshidan bularga mo‘ralab oldi* (13, 477);

3) **xohish**. M.: *Ikki yoshning hozirgi holini yaqindan tomosha qilmoqchi bo‘lg‘an tussiz bir yulduz ko‘k sahnining yerga yaqinroq qismig‘a uchib tushdi...* (13, 477);

4) **mamnunlik**. M.: *Oy ham bir oz nurlanib, turmushka yangi qadam bosqan bu ikki yoshning hozirgi hollaridan kulimsigandek ko‘rinar edi* (13, 473);

5) **xursandlik**. M.: *Shamol asnosi gullar ham kelinlar kabi har tomong‘a egilishib salom berishib olar edilar* (13, 475).

5. **Saj (10)** badiiy san‘ati o‘zbekona tasvir usuli bo‘lib, dostonlarda juda ko‘p qo‘llangan. Abdulla Qodiriy milliy tilning jozibasini, nasrda ohangdoshlikni ta‘minlash maqsadida romanlarida ushbu vositani qo‘llagan:

1) **to‘g‘rilik**. M.: *Lekin Anvar ta‘mani, shaytanatni, adovatni ayniqsa, xufiyalikni bilmas, devonda o‘ziga topshirilg‘an vazifanigina ado qilar, alaxusus mazlumlar dodnomasini xong‘a eshitdirishka va yaxshi natijalantirishka tirishar edi* (1, 431);

2) **tabiiylik**. M.: ... *tog‘lardag‘i ohular, o‘rmonlardag‘i to‘tilar, chamandagi bulbullar ham yolg‘iz emas, juft yashaydirlar...* (1, 476);

3) **go‘zallik**. M.: *yerlar ko‘k gilamlar bilan bejalganda, har tarafni binafsha chechlari bosqanda, qushlar uya qayg‘usini chekkanda biz ham to‘y qilarmiz...* (1, 477);

4) **ruhiy ezilish**. M.: *Oyu yillar yiglag‘an, bag‘rin har dam tig‘lag‘an. Hasratidan big‘lag‘an (hushsiz yiqilg‘an), baxtsiz bir qiz Nazmidir!* (1, 500);

5) **surat**. M.: *surma qo'yg'andek ohu ko'zi bor, qizil olmadek tarang yuzi bor, endi chiqib kelgan ko'k maysa mo'ylabi, Roziya xonimnikidan ham nafisroq qalam qoshi...* (1, 504);

6) **maqsadsizlik**. M.: *ularning ovinchog'i — kunduzlari o'yun, kechalari bazm va tunlari uyqu ham tush edi* (1, 499);

7) **qo'rquv**. M.: — *Xon huzuriga borayotibman, deb o'limni o'yladim, yatim qoladig'an bolalarimni, men o'lgandan so'ng erga tegadigan yangangizni o'yladim!* (1, 523);

8) **tilak**. M.: — *Onhazratimning davatlari kam, o'zlarida g'am, ko'zlarida nam, dushmanlarida dam, qadlarida xam bo'lmasin... Shahzodamning boshlarida baxt, ostlarida taxt o'ynab, yosh umrlariga ajali bevaqt yetmasin... Shohi baxtiyorning xizmatlariga bel bog'lag'an oq salla, ko'k salla, to'ni malla otalarimizning dillari ham hamisha soqollaridek oq bo'lsin, omin!* (1, 523);

9) **istak**. M.: *Soniy, arzi bandaligimiz shulki, biz, darbadari devona, aqlu hushdin begona, xalq gilida afsona, elkezar g'aribona qullaringiz dardu alam yutar erdik, qalamravingizning bir chetidan o'tar erdik. Dedilarkim, bu diyorning xoqoni, Iskandari soni, zaru zavar koni, elning oshu noni, ya'ni saxovatda Hotam, kahri kelsa motam... g'urabo yoridir va yana sizlardek bozori kasod darbadarlar, enasi ko'chada tuqqan bepadarga ham ehsoni joriydir, deb biz ahli tama' bechora, nafs ilgida ovora g'ariblar har qaysimiz besh paysa, o'n paysa tama xapidan yutib, dargohingizga yuzlandik, toki eski-tuski hunarlarimizni arz qilsaq, janobingizni besh nul, o'n pul qarz qilsaq, deb...* (1, 523);

10) **taqlid**. M.: *Kishi xong'a qarshi turg'an holda sallasini tuzatdi, soqol-murtini siladi, to'nini qoqib, oldini o'radi, so'ngra xotirjam ruku'ga bordi* (1, 522);

11) **holat**. M.: *Kullar ko'kka uchar, cho'g'lar kulga botar, chalalar cho'qqa aylanar edilar...* (1, 536);

12) **o'y-fikr**. M.: *Imom qiroatda, Safar bo'zchi somi'lik (tinglash) o'rnig'a — “manovi ketman soqolning afti xunuk, uttasining avzoyi buzuq, domlamning bo'lsa g'urragi bola ochqan* (1, 541);

13) **kesatiq**. M.: *ubraga uquving yo'q, palovni lanj qilasan, somsani yopolmaysan, tuppuni kesalmaysan, senga qayla buyurg'andan, atala qil degan yaxshi, chunki eziltirib yuborasan, manti to'g'risida o'ylash ham ortiqcha...* (1, 554);

6. **Matallar** (3) o'zbekona obrazli ifodalar bo'lib, xalq og'zaki ijodida juda ko'p ishlatiladi. Adib fikrni yanada ta'sirli shaklga keltirish maqsadida ushbu vositalardan foydalangan:

1) **piching**. M.: *“Hay etti, huy etti, ikki koski to'y etti” deganlaridek har ikki to'y ham bir hafta ichida o'tti, Na'imaxonim uyoqqa ketib, Nigorxonim buyoqqa keldi* (3, 387);

2) **xassislik**. M.: *Bu to'g'rida xotini harchand rad qilsa ham qoplab shalg'am, yigirma-o'ttuzlab qovoq xarid qilishini qo'ymas — “shalg'am — Bibi Fotimai Zuhraning duolari barakati, qovoq bo'lsa hazrati Yunusning mo'jizalari” deb bahosi arzon va lekin xosiyati ko'b bo'lg'an bu mablag'lar bilan oshxonani to'ldira berar edi* (3, 390);

3) **ta'ma**. M.: *Panjshanbalik bo'lsa maktabning asos haqqi va bulardan boshqa “Qulyog'a quymoq — Ammaga bo'g'irsoq — Yosinga yupqa” degan gaplar ham bo'lar edi. Bolalar har yili bir marta “buryo*

puli” va oyig‘a bir necha bor “*supurgi puli*” ham to‘lab turar edilar (3, 391);

4) *sabr*. M.: “*Xotin kishining boshi uy ichining og‘ir toshi*” emish... Hozir o‘zi qirq yoshqa kirgan bo‘lsa, yigirma besh yildan beri shu mumsik er bilan tiriklik qilib keladir (3, 392).

5) *iqror*. M.: — *Yovda bo‘lsa, tezagi tegar emish*. Anvar o‘z bolangiz-da (3, 415).

6) *ta‘na*. M.: *Chunki qo‘shnilarning “qaysi holing‘a tug‘ding?” yoki “o‘zi o‘lgur it mijozmi?” deb ta‘na qilishlaridan cho‘chidi* (3, 416);

7) *kam, ko‘p*. M.: — *O‘zlaringizni aytishlaringizga qarag‘anda, musulmon kishi uchun kina saqlash bir ro‘ymolni yuvib qurutqancha ekan, — dedi Safar bo‘zchi, — bizlar bo‘lsaq to‘rt kundan beri shaytonni apichlab yuruymiz...* (3, 462);

8) *izn berilgan*. M.: *...ikki joyda yolg‘on aytishni ma‘qul degan ekanlar; bittasi — eru xotinning orasida, ikkinchisi — ikki mo‘minni bitirish uchun* (3, 463);

9) *arzimas*. M.: — *Kina degan ro‘molni yuvib quritquncha, — dedi Safar bo‘zchi, — yangi mirzoboshining uyidan domla bilan birga fotiha o‘qub kelamiz* (3, 463).

10) *iqtisod*. M.: *Haram xonimlari bo‘lsa yuz tilloliq sarposiz kelmaslar, qizingizg‘a cho‘ri hadya qilsalar ham ajab emas. Albatta daromadga yarasha buromad, degan gap bor...* (3, 511);

11) *huzur*. M.: — *Jon olov — jon er, deпти bir xotin...* Gulxan o‘tlik yigitning issiq quchog‘i emish. Qani, bu yoqqa marhamat! (3, 533);

12) *izoh*. M.: — *Xotin kishining charxi bilan o‘chog‘ig‘a tegma, degan gap to‘g‘ri emish* (3, 555);

13) *eslatish*. M.: *Mahalla bolalari eshikma-eshik yurib — “Barot keldi, bildingizmi, idish-oyoq qildingizmi?” ashulasini aytar edilar* (3, 584);

14) *ta‘kid*. M.: *Safar bo‘zchi ham “payrav” qildi. “Bir qo‘chqorning boshi ketkuncha, minglab qo‘yning kallasi kesilar emish, deb ayt domlangg‘a!” dedi* (3, 540);

15) *norozilik*. M.: — *Kufroni ne‘mat, non tepkulik, — dedi maxdum. Anvar yana kulimsidi, ammo jiddiy tus olg‘an edi* (3, 412).

7. **Maqollar** (9) xalq og‘zaki ijodidagi eng qadimiy janr bo‘lib, uzoq yillar davomida qisqa shaklga kelgan purma‘no fikrlardir. Har bir milliy tilning asl qatlamini tashkil etadi. Adib milliy tildagi badiiy tasvirning mukammalligini ta‘minlash uchun ushbu vositadan foydalangan:

1) *haqiqat*. M.: *Oyni etak bilan yashirib bo‘lmaydir. Maxdumning xasislikka o‘xshash holatlari albatta bor edi* (9, 389);

2) *qo‘rqmaslik*. M.: *Chunonchi, ushbuning misoli turkiyda ham bor: “Chumchuqdan qo‘rqib, tariq ekmagan” deb qo‘rqoq kishilarni masxara qiladirlar* (9, 412);

3) *yuksakni ko‘zlash*. M.: — *Habba, — dedi maxdum tamom ochilg‘an qiyofatda, — go‘daklik lozim emas, jabonat ko‘b mazmum (ayb, yomon) sufat, “Osilsang ham baland dorg‘a osil” maqoli ko‘b purhikmat so‘z* (9, 415);

4) *shukrona*. M.: — *Yovda bo‘lsa, tezagi tegar emish. Anvar o‘z bolangiz-da* (9, 415);

5) *tushunish*. “*Qush tilini qush biladir*” deganlaridek, Nodiraning samimiy arzi bandachiligi Mohlar oyim bilan Nigor kelinning yuklarini ezdi... (9, 419);

6) *achinish*. M.: *Mol ketti — jon ketti, ishka ham qo‘lim bormaydi* (9, 436);

7) *aminlik*. M.: — *Ko‘bhilikning duosi ko‘l bo‘lsa yaxshi, — dedi imom, — ammo bu xizmatka uning ilmi kofiyimi?* (9, 438);

8) *o‘zgarmas*. M.: “*Sut bilan kirgan — jon bilan chiqar, maqoli ko‘b to‘g‘ri so‘z deb o‘ylar va ensasi qotib, chetka qarar edi* (9, 464);

9) *e‘tiqod*. M.: — *Yaxshiliq qil, daryog‘a tashla, baliq bilmasa, Xoliq bilur, deganlar* (9, 538);

10) *ishonch*. M.: *O‘chadirg‘an charog‘ yoqin o‘chadir, maqoli kabi Turkiston xonlarida siyrak ko‘rilgan bu ma‘muriyatparvarlik bizga qolsa shu omillardan tug‘ilg‘an va bunda samimiy hech narsa yo‘q edi* (9, 481);

11) *majburiyat*. M.: *Yana shu holda matonatini yo‘qotmay, “do‘sting uchun qon yut” maqolidagi kabi, ularni qahramonliqda tabrik etdi* (9, 607);

12) *mos*. M.: *Egri to‘nkaga — egri to‘qmoq; mirzam xo‘b yaxshi ish qilg‘anlar-da* (9, 549);

13) *mas‘uliyat*. M.: *Va‘da berish oson, lekin uhdasi mashaqqat; bundan so‘ng shuni ham xotirda yaxshi tutingiz* (9, 582);

14) *oson*. M.: — *Ana, xolos. Az karnaychi yak kuf. Men erta unga aytay, huzuringizga boraversin* (9, 519);

15) *holni bilish*. M.: *mulla Abdurahmon kabi bir kishining suvg‘a tushkan nondek shilqillab qolishig‘a: “Ko‘rpangga qarab oyog‘ uzat, mullavachcha!” deb o‘zicha kulib qo‘yar edi* (9, 540).

8. **Portret** (*surat*) tasvirida har qaysi millatda surat va siyrat ifodasiga asoslanadi. Surat tasviri ham lingvopoetikada ko‘p qo‘llanadigan unsurlardan biridir. Yozuvchi o‘zbeklardagi milliy qiyofaga xos ayricha jihatlarni ko‘rsatish uchun ushbu vositadan foydalangan:

1) *Solih maxdum*. *Maxdum bo‘ychan, olago‘sh, siyrak mo‘y, oq tan, istarasi issig‘ bir domla edi. Yoshi ellidan oshqan, soch va soqolida bir muncha oqlar ko‘rinar edi. Kishi bilan so‘zlashkanda, ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda siyrak va lekin to‘g‘ri, baquvvat o‘skan soqolini tutamlab o‘ng ko‘zini bir oz qisib qarar, odat qilg‘andan bo‘lsa kerak gap orasida “habba” (ha, barakalla) degan so‘zni ko‘proq ishlatar edi* (9, 392);

2) *Nigoronim*. *Nigor oyim qisqa bo‘liq, pista po‘choq targ‘il ko‘zlik, zarcha tanlik, yuzidagi onda-sonda chechak o‘runlari bo‘lmag‘anda husndor bir xotin edi. O‘z bolalari bilangina emas hatto shogirdlari bo‘lg‘an qizlar bilan ham juda yumshoq muomala qilar, ortiqcha achchig‘lang‘an kezlarda “beting qursin” deb qoshini chimirib olar edi* (9, 394);

3) *Ra‘no*. *Ta‘birimiz qo‘pol tushmasa bu go‘zal qiz, och ra‘no gulining tusida yoki oq sariq tusda yaratilg‘an edi. A‘zoda o‘skan tuklarga ham haligi tusning ta‘siri bo‘ladir. Ra‘noning sochi gungurt-qora, ya‘ni quyoshsiz joylarda qora ko‘rinsa ham quyoshda bir oz sarg‘ish bo‘lib ko‘rinar edi. Shunga o‘xshash Ra‘noning ko‘zida ham*

buning asari ko‘ruladir: mudavvar(to‘garak)ga moyilroq jodu ko‘zi kishiga qattiq qarag‘anda **qoraliqdan boshqacha yana bir turluk nur sochar edi. Kiprklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko‘rinsa ham ko‘ndalang yotqan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko‘tarilish ajratib turar edi. Burni hech bir munaqqid(tanqid)g‘a berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turg‘an nafis irinlarining yuqorig‘i qismida sezilar-sezilmas tuklar ko‘kargan edi. Yuzi cho‘ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo‘lmas, kishiga kulib qarag‘anda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo‘lar, go‘yo bizga chin ra‘no guli ochilg‘an holatda ko‘rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar Ra‘noning orqa, o‘ngini tutib yotar, qaddi uzunliq bilan qisqaliqning o‘rtasi, do‘ndiq barmoqlarining jimjilog‘ida xina gullari, har holda bu qiz yolg‘iz Qo‘qonningg‘ina emas, umuman Farg‘onaning kuylariga qo‘shulib maxtaladirg‘an go‘zallaridan edi (9, 395);**

4) **Shahidbek.** Domlaning orqasidan harsillagan, gursillagan **elli yoshlar chamaliq semiz bir kishi ko‘rindi. Ko‘k sallasi manglayining usti bilan o‘ralib, o‘siq qoshi qovog‘ig‘a yotqan** bu bekning belidagi kumush kamari benihoyat **o‘sib tushkan qornini yuqorig‘a ko‘tarib turish vazifasini ado qilar edi (9, 406);**

5) **mulla Abdurahmon, Samad bo‘qoq, Shukur so‘fi.** Jilovxonaning to‘rida o‘lturgan **qora to‘nlik, o‘ttuz yoshlar chamasida rangsiz va yoshlig‘iga qaramasdan quyuq soqolini bahaybat o‘sturib, bir burdagina yuziga ot to‘rba osqan kabi bir kishi edi. Uning yonida bo‘z yaxtak bog‘ichini osiltirib, xandalandek bo‘qog‘i bilan o‘ng tomog‘ini ziynatlagan o‘rta yashar yana bir “husni Yusuf” ko‘rinar edi. Uning qatorida oshlovdek chozuq yuzlik, oq bo‘z ko‘ylagi yerdan to‘rt enlik ko‘tarilib, bo‘z sallasi gardani aralash o‘ralg‘an uchunchi nozanin o‘lturar edi. Bulardan birinchi muhtaram shu masjidning yosh imom va xatibi Abdurahmon domla janoblari bo‘lib, ikkinchisi mahallaning shirin so‘z g‘iybatchilaridan Samad bo‘qoq, uchunchisi masjidning muazzini Shukur so‘fi edi (9, 435);**

6) **Roziya xonim.** Shu holda ichkaridan go‘yo yuzi sut bilan **sug‘orilg‘andek oq, quralay ko‘zi oysiz va bulutliq kechasidan ham qoraroq, qaddi sarv kabi mavzun, qora sochi taqimini o‘pkan, ust-boshi ipak va oltinlar bilan g‘arq bir xonim xiromon chiqib keldi. Boshidag‘i hisobsiz kokillarini sanama tikilgan oq harir ro‘ymol bilan ozorsizg‘ina bog‘lag‘an, yoqa va etaklariga nafis jiyak biriktirgan xonatlas ko‘ylak, buxoro kundalidan qirg‘oqlarig‘a oltin uqa (qo‘r) tutulg‘an yengsiz jelatka kiyib, yoqut ko‘zlik oltin tugmalarni bo‘shqina solg‘an, husnda misli oz bu nozanin xonning suyukli xotini — mazkura Roziya xonim edi (9, 493);**

7) **mirzo Anvar.** O‘zi qanday yigit deb so‘ra: **surma qo‘yg‘andek ohu ko‘zi bor, qizil olmadek tarang yuzi bor, endi chiqib kelgan ko‘k maysa mo‘ylabi, Roziya xonimnikidan ham nafisroq qalam qoshi...** Ustiga kiygan **beqasam to‘ni o‘ziga shunday yarashqanki, biz qizlar ixtiyorsiz unga qarashdiq (9, 504).**

9. **Replika-takrorlar (8)** har qaysi milliy tilda ko‘p ishlatiladigan vositalardan biridir. Yozuvchi tilimizdagi milliy ohangga xos jozibani ko‘rsatish uchun ushbu vositadan foydalangan:

1) *mulozamat*. M.: — *Siz yuring!* — *Siz yuring!* — *Men rozi!* — *Adabsizlik bo'ladi-da, xrrr?* (8, 406);

2) *izoh*. M.: — *Uning uhda qilishini siz qayoqdan bilasiz?* — *Xudoy bildirsa, bilaman-da taqsir?* — *Xo'sh?* — *Axir, ko'bhilikning duosi ko'l-da, taqsir!* — *Ko'bhilikning duosi ko'l bo'lsa yaxshi, — dedi imom* (8, 438);

3) *munozara*. M.: — *Ammo bu xizmatka uning ilmi kofiyami?* — *Kovfiy, taqsir, kovfiy!* — *Axir, siz kofiyiligini qayoqdan bilasiz?* — *Axir... kovfiy emasligini siz ham qayoqdan bilasiz, taqsir* (8, 438-439);

4) *ta'kid*. M.: — *Nega yomon?* — *Iflos ish. Agar boshqa kasb topsam, o'rdani butunlay tashlab ketar edim.* — *Iflos ish?.. Sizning bek pochchangiz ham shu xizmatni qilar edi-ku?* — *Men bek pochcha bo'lolmayman, Ra'no* (8, 433);

5) *taajjub*. M.: — *Toshkand borish uchun pul qani?* — *Pul topiladi.* — *Pul topiladi?* — *deb kuldi Rahim, — bu bepadar boybachchangizni qara, Sharifboy* (8, 610);

6) *maqrov*. M.: — *Qani, ining bilan ko'rishdingmi, Qobel?* — *Ko'rishdim.* — *Odami nag'z bo'lg'an?* — *Odami nag'z* (8, 611).

Buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" nomli ikkinchi romanida lingvopoetik vositalardan samarali foydalanib, beqiyos badiiy tasvirlar yarata olgan. Adib mashaqqatli mehnati, kuchli aql-zakovati, chuqur bilimi, beklik (21) (*grajdanlik*)ni his eta olishi, milliy g'urur va faxr tuyg'usi ustunligi bois *o'zbek badiiy san'atining* dahosi darajasiga ko'tarila olgan. Yozuvchi o'zbek xalqining vijdoni sifatida millatimizning qalb tubida har doim barhaq yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1984. — 213 б.
2. Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования. Дисс. д-ра филол. наук. — М., 1992. — 479 с.
3. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. — Тошкент: Ўқитувчи, 1990. — 91 б.
4. Қодирий Абдулла. Меҳробдан чаён. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. — 656 б.
5. Қодирий Х. Абдулла Қодирий (таърифи адиб). — Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2004. — 32 б.
6. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. — Тошкент: Фан, 1997. — 450 б.
7. Лафасов У.П. Абдулла Қодирий романлари лингвопоэтикаси. — Тошкент: ТДШУ, 2021. — 160 б.
8. Лафасов У.П. Абдулла Қодирий романларидаги саж ва гул билан боғлиқ тасвирлар // "XXI аср: фан ва таълим масалалари" илмий электрон журнали, 2021. — № 4. — Б. 1-12.
9. Лафасов У.П. Диалогик нутқда субъектив модалликнинг ифодаланиши: Филол.фан.ном. ...дисс.авторреф. — Тошкент: Фан, 1996. — 26 б.
10. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. — Москва: Либроком, 2010. — 164 с.
11. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. — Тошкент: Ижод, 2006. — 140 б.
12. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. — Тошкент: Ўқитувчи, 1996. — 610 б.
13. Раззоқов Х., Мирзаев Т., Собиров О., Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. — Тошкент: Ўқитувчи, 1990. — 360 б.
14. Расулов А. Бадийлик — безавол янгилик. — Тошкент: Шарқ, 2007. — 336 б.

15. Содыкова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. — Ташкент: ЎзСовЭ Бош редакцияси, 1989. — 450 б.
16. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: ЎзМЭ, 2002. — 550 б.
17. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1974. — 307 б.
18. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаши. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — 109 б.
19. Шуқуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. — Тошкент: Фан, 1977. — 149 б.
20. Lafasov U.P. Abdulla Qodiriy romanlarida metonimiya usulida ma'no ko'chishi // "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. — 2022. — №1. — B. 1–13.
21. Lafasov U.P. The King of Uzbek Prose // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. — 2020. — Vol. 24, Issue 05. — pp. 1851-1862. ISSN: 1475-7192.

References

1. Berdierov Kh., Rasulov R. *Uzbek tilining paremiologik lugati* (Paremiological Dictionary of the Uzbek Language), Tashkent: Ukituvchi, 1984, 213 p.
2. Zadornova V.Ya. *Slovesno-khudozhestvennoe proizvedenie na raznykh yazykakh kak predmet lingvopoetiches kogo issledovaniya. Diss. d-ra filol. nauk* (Verbal and Artistic Work in Different Languages as a Subject of Linguistic and Ethical Research), Doctor's thesis, Moscow, 1992, 479 p.
3. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsokov B., Safarov O. *Uzbek khalk ogzaki izhodi* (Uzbek Folk Oral Creativity), Tashkent: Ukituvchi, 1990, 91 p.
4. Kodiriy Abdulla. *Mehrobdan chaen*, Tashkent: Gafur Gulom nomidagi nashriyatmatbaa izhodii uii, 2017, 656 p.
5. Kodiriy Kh. *Abdulla Qodiriy (ta'rifi adib)* (Abdullah Qadiri (Pronounced Adib)), Tashkent, 2004, 32 p.
6. Kungurov R. *Uzbek tilining tasvirii vositalari* (Illustrative Tools of the Uzbek Language), Tashkent: Fan, 1997, 450 p.
7. Lafasov U.P. *Abdulla Qodiriy romanlari lingvopoetikasi* (Linguopoetics of the Novels of Abdullah Kadiri), Tashkent: TDSHU, 2021, 160 p.
8. Lafasov U.P. *21 asr fan va ta'lim masalalari* ilmiy elektron zhurnali, 2021, No. 4, p. 1–12.
9. Lafasov U.P. *Dialogik nutkda sub'ektiv modallikning ifodalanishi* (Expression of Subjective Modality in Dialogical Speech), Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent: Fan, 1996, 26 p.
10. Lipgart A.A. *Ocnovy lingvopoetiki* (Fundamentals of Linguopoetics), Moscow: Librokom, 2010, 164 p.
11. Maxmudov K. *Uzbek tilining tarikhii fonetikasi* (Historical Phonetics of the Uzbek Language), Tashkent: Izhod, 2006, 140 p.
12. Razhabov N. *Uzbek shevashunosligi* (Uzbek Dialect), Tashkent: Ukituvchi, 1996, 610 p.
13. Razzoqov H., Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. *Uzbek khalk ogzaki poetik izhodi* (Uzbek folk Oral Poetic Creation), Tashkent: Ukituvchi, 1990, 360 p.
14. Rasulov A. *Badiilik — bezavol yangilik* (Artistry is a Decorative Novelty), Tashkent: Shark, 2007, 336 p.
15. Sodykova M. *Kratkii uzbeisko-russkii frazeologicheskii slovar'* (A Brief Uzbek-Russian Phraseological Dictionary), Tashkent: UzSovE Bosh redaksiyasi, 1989, 450 p.
16. Hozhiev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lugati* (Explanatory Dictionary of Linguistic Terms), Tashkent: UzME, 2002, 550 p.
17. Hozhiev A. *Uzbek tili sinonimlarining izohli lugati* (Explanatory Dictionary of Synonyms of the Uzbek Language), Tashkent: Ukituvchi, 1974, 307 p.
18. Hozhiev A. *Uzbek tilida suz yasalishi* (Word Making in Uzbek), Tashkent: Ukituvchi, 1989, 109 p.
19. Shukurov R. *Uzbek tilida antonimlar* (Antonyms in Uzbek), Tashkent: Fan, 1977, 149 p.
20. Lafasov U.P. *21 asr: fan va ta'lim masalalari*, 2022, No.1. pp.1-13.
21. Lafasov U.P. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 2020, Vol. 24, Issue 05, pp. 1851-1862.